



## GENERATOR ROTORINING AYLANISH TEZLIGINI AVTOMATIK ROSTLASH TIZIMINI TADQIQ QILISH.

Safarov Xoliyor Sayyid  
Safar o'g'li,

(Qarshi Muhandislik Iqtisodiyot instituti)  
Tel: +998 90 887 5644

### Annotation

Maqolada energetika tarmoqlarida generatsiya taqsimoti (GT) qurilmalarida ishlataladigan sinxron generatorning rostlash regulyatorlari- quzg'atishni avtomatik rostlash (QAR) hamda rotoring aylanish tezligini avtomatik rostlash (TAR) tizimlarini o'rnatmalarini optimal tanlash orqali generatorning izolyatsiyalangan tizimida alohida barqaror ishslash rejimlari ko'rib chiqilgan. Bunda rostlash o'rnatmalar har xil yo'llar orqali o'zgartirilib optimal qiymatlari aniqlangan.

<b>Kalit so'z</b>	Quzg'atishni avtomatik rostlash (QAR), tezlikni avtomatik rostlash (TAR), generatsiya taqsimoti (GT), muqobil energiya manbalari, regulyatorlar o'rnatmalar
-------------------	---

**Kirish (Introduction):** Generatsiya taqsimoti (**GT**) bu kichik generatsiya qurilmasi bo'lib u odatda energetika tizimida, podstansiyalarni taqsimlovchi fiderlarida yuklama tugunlarida o'rnatiladi. GT uncha katta bo'limgan elektr energiya ishlab chiqaruvchi modulni texnologik jarayon kabi ishlatadi, uni energiyani saqlash va boshqarish tizimi bilan birlashtirish mumkin. U oxirgi foydalanuvchi yoki uning yaqinidagi elektr ta'minot tizimini ish faoliyatini yaxshilash uchun ishlataladi.

Ushbu tizimlar elektr tarmog'iga ulangan yoki ulanmagan bo'lishi mumkin. Taqsimlangan energiya ishlab chiqarish an'anaviy markazlashgan ishlab chiqarish modelidan tubdan farq qiladi, chunki u sanoat hududida, aholi punktlari yaqinida, bino ichiga oxirgi foydalanuvchilar yaqinida joylashgan bo'lishi mumkin.

So'ngi yillarda unga bo'lgan qiziqlishi ortib borayotganligi sababli generatsiya taqsimoti uskunalarining har xil turlari ishlab chiqarilmoqda. Taqsimlangan generatsiya uskunalariga tabora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Bu asosan, taqsimlash tizimidagi energiya isrofini kamaytiradi, kuchlanish tebranishini chegaralaydi, ishonchlilikni oshiradi, elektr energiya sifatini yaxshilaydi, enrgiya xarajatlarini kamaytiradi va oqibatda energiya iste'molchilarining talabini qondirish kabi afzalliklarga ega.

**Adabiyotlar tahlili (Literature review):** Muqobil energiya manbalari texnologiyalarining jadal rivojlanishi [1] texnologik nuqtai nazardan iqtisodiy effekt mavjud bo'lganda elektr ta'minotini tarqoqlashtirish imkoniyati yaratadi. Turar-joy


binolari va sanoatning elektr ta'minoti tizimlariga, taqsimlangan generatsiyani qo'llash ayniqsa samarali [2] chunki ishlab chiqaruvchi qurilmalarning issiqlik yo'qotilishi isitish uchun ishlatalishi mumkin, bu esa energiya resurslaridan foydalanishda samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi [3].

Loyihalashtirilayotgan tizimni baholashning eng qulay vositalardan biri bu uning simulyatsiya modellarini yaratishdir [4]. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki elektr ta'minoti tizimlarining taqsimlangan generatsiyasi simulyatsion modellari juda ko'p marta yaratilgan va qo'llanilgan. [5] chi ishda elektr tizimini modellashtirish Matlab/Simulink dasturiy ta'minot paketida amalga oshirilgan. Xarakterli elektr qabul qiluvchilarining yuklamalari grafigi ko'rib chiqillgan. Uch fazali tizimda chiziqli bo'lmanan yuklamalarning elektr energeyasi sifat ko'rsatkichlarga ta'siri [6] batafsil ko'rib chiqilgan. Taqsimlangan generatsiya tizimlari kelajakda energiyaga bo'lgan global talabni o'sib borishini qondirishi bilan bir qatorda hayotiy masalalarni hal etishda muhim rol uynaydi.

**Metodlar (Methodology):** Rotorni aylanish chastotasi rostlagichini ishlash printsipi. Tezlikni avtomanik rostlash (TAR) regulyatori (rasm. 1 ) ikkita segmentni o'z ichiga oladi, bo'lar asosan: differentsial elementni uzatish funktsiyasi  $W_{for}(s)$  bilan, proporsional-integral-differensial (PID) qonuniyat asosida ishlaydigan regulyator va uning uzatish funktsiyasi  $W_{PID}(s)$ . Rostlanadigan kattalikni ikkita qiymat bo'yicha aniqlaymiz ya'ni, oddiy chiziqli differentsial qiymat va joriy qiymatlar bo'yicha, unda – joriy qiymat  $y(t)$  hamda joriydan oldingi  $y(t-\Delta t)$  qiymat bo'ladi va qo'yidagi ifoda bilan aniqlanadi.

$$W_{for}(s) = T_p s + I;$$

Bunda  $T_p$  – doimiy vaqt momentining chiziqli zvenosi, s-Laplas operatori.



1-rasm. Differentsial rostlagich bilan avtomatik boshqaruv tizimini yopiq sxemasi.

Shunday qilib, ma'lum bir ob'ekt uchun differentsial zvenoning doimiy vaqtini aniqlash vazifasi paydo bo'ladi. Bu ishda eng yaxshi differentsiallash vaqtini belgilash, 0.1 davrni tashkil etadi. [7],[9] ishlarda ta'kidlanishicha, differentsiallashning eng yaxshi vaqt, tarkibi optimal sozlangan yopiq tizimning xususiy tebranishlari 0.1 davrini tashkil qiladi va bu uning dinamik xususiyatlarini aniqlashni talab qiladi. Turli chastotada hosil bo'lgan xususiy tebranishlarda elektromagnit va elektromexanik tashkil etuvchilardan elektr ta'minot tizimining (ETT) dinamik xususiyati aniqlanadi.


GT qurilmalari xususiy tebranishlarining chastotasini hisoblash quyidagi ifoda bilan aniqlanishi mumkin:

$$f_p = \sqrt{\frac{\frac{\partial P_g \cdot \omega_0}{\partial \delta_g \cdot T_{je}}}{2\pi}} = \sqrt{\frac{E_q U_g}{X_d} \cos \delta \frac{\omega_0}{T_{je}}}{2\pi} \quad (1)$$

bu erda  $f_p$  - modul va uning shinalaridagi kuchlanish vektori burchagi o'zgarmagan holdagi generator rotorining xususiy tebranishlari chastotasi. Ya'ni, uni har tomonlama tavsiflovchi generator parametri bo'lgan chastota va ETT bilan ular orasidagi aloqaning inertsiyasi va qat'iyligini ko'rsatuvchi kattalik hisoblanadi.

$\frac{\partial P_g}{\partial \delta_g}$  - generatorning sinxronlovchi quvvati,  $\omega_0$  – 314 rad/sek., generator rotorining nominal aylanish chastotasi;  $T_{je}$  – generator mexanik inertsiyasining ekvivalent doimiysi,  $U_g$  – generatorning nominal kuchlanishi,  $\delta_g$  –  $U_g$  va  $E_q$  orasidagi burchak.


Shuni ta'kidlash kerakki,  $f_p$  funktsiyasi agregatlarning parametrlariga bog'liq va turli xil GT qurilmalari uchun bir biridan farq qiladi.



2-rasm. Generator rotorini tezligini rostlash (TAR) ning blok sxemasi.

$W_G$ -generatorning uzatish funktsiyasi;  $W_T$ -turbanining uzatish funktsiyasi;  $W_{PID}$ -TARning uzatish funktsiyasi

**Kompyuter modeli.** Modellashtiriladigan elektr tizimning umumiyo ko'rinishi 3-rasmda keltirilgan, bunda izolyatsiyalangan rejimda ishlaydigan ETTning ekvivalent elektr sxemasi keltirilgan.



3-rasm. Izolyatsiyalangan rejimda ishlaydigan ETTning ekvivalent elektr sxemasi.

TAR – tezlikni avtomatik rostlash,


QAR – quzg'atishni avtomatik rostlash,

DCh - aylanish chastota datchiki,

QCh - qo'zg'atish cho'lg'am


TH - ulchov kuchlanish transformatori

3-rasmni Matlab/Simulink dasturlash tizimida modellashtirilgan ko'rinishi 4-rasmda keltirilgan.




4-rasm. Matlab dasturlash tizimi asosida tadqiq qilingan sxema.

4-rasmda keltirilgan model sxemasida qo'zg'atishni rostlash imkoniyati nazarda tutilgan bo'lib bu modelda aktiv- induktiv xarakterdagи  $0.6 + j0.4$  MVA yuklamani qushib-o'chirish mumkin, modelda bu ishni kalit (Breaker) bloki bajaradi. Bundan tashqari yuklamalar shinasida uch fazali qisqa tutashuv (QT) jarayonini Three-Phase Fault bloki yordamida imitatsiya qilish mumkin, bunda QT vaqt 0.5 sek. deb qabul qilingan. Bug' turbinasi orqali aylantiriladigan turbogenerator SymPowerSystemsda, Synchronous Machine paketining standart bloki bilan modellashtirilgan. Bug' turbinasi modeli (Steam turbine bloki) oraliq bug' ajralishini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Steam turbine blokining blok sxemasi 5-rasmda keltirilgan.



5-rasm. Oraliq bug' ajralishini hisobga oladigan bug' turbinasi modelining struktura sxemasi.

Tiristorli qo'zg'atgich (Exciter bloki)  $ke$  - koeffitsienti,  $T_e$  vaqt konstantasi va kuchlanishni cheklash bloki bilan birinchi darajali aperiodik bog'lanish orqali modellashtirishda parametr qiymatlari quyidagicha qabul qilingan:  $ke = 1$ ;  $T_e = 0,025$  s. Qo'zg'atgich modelini rostlagichi sifatida differenttsial kattalikli QAR olingan, u mikroprosessorli proportsional-integral-differenttsial (PID) qonuniyatli rostlagichini o'z ichiga oladi. Differenttsial kattalikli QARning strukturali sxemasi 6-rasmida ko'rsatilgan. Blokda uzatish funksiyasi  $\frac{K_a}{T_p s + 1}$  bilan elektron kuchaytirgich  $T_r S + 1$  ni ketma-ket ulanishini hisobga olingan. Modellashda quyidagi sonli parametrlarini qiymatlari  $K_a=1$ ,  $T_s=0,001$  sek qabul qilindi.




6-rasm. QAR strukturali modeli sxemasi

$U_g$  - generator kuchlanishini joriy qiymati;

$\Delta U$  - generator kuchlanishini differentsiyal qiymati.

Kerakli modifikatsiyalarni hisobga olgan holda, defferentsial qiymatli model ishlab chiqilgan bo'lib, uning blok diagrammasi 7-rasmida keltirilgan.



7-rasm. TAR ning strukturali modeli sxemasi

Bunda  $P_g$  - generatorning aktiv quvvati,  $U_d$ ,  $U_q$  - generatorning d,q uqlari bo'yicha kuchlanishlari.  $U_{ref}$  - generator kirish kuchlanishini boshlang'ich qiymatli.

**Tahlil va natijalar (Research and Results):** Tavsiya etilgan differentsiyal regulyatorning ta'sirini o'rganish uchun avtonom elektr ta'minoti tizimida chastotani sifatili boshqarish bo'yicha quyidagi rejimlar ko'rib chiqildi:

- iste'molchining shinalarida uch fazali qisqa tutashuvning paydo bo'lishi va uni 0,5 s dan keyin rele himoyasi bilan o'chirib qo'yiladi, bu regulyatorlar o'rnatmalari rostlanmagan holat uchun.


- iste'molchining shinalarida uch fazali qisqa tutashuvning paydo bo'lishi va uni 0,5 s dan keyin rele himoyasi bilan o'chirib qo'yiladi va regulyatorlar o'rnatmalari tanlab qo'yiladi.

Ushbu ishda generatorlarining QAR va TAR sozlamalarini optimallashtirish tartibi dasturiy hisoblash bilan bajarilmadi. Regulyatorlarni o'rnatma sozlash koeffitsientlari amaliy izlanishlar tajribasiga ko'ra tanlandi.


1. Qisqa tutashuv va uni rele himoyasi orqali o'chirilganda 8-rasm, tizimda katta buzilishlar holati yuzaga keladi, bu regulyatorlar o'rnatmalari rostlanmagan holat uchun.

2. Qisqa tutashuv va uni rele himoyasi orqali o'chirilganda 9-rasm, tizimdagagi katta buzilishlar holati yuzaga keladi, bunda QAR hamda TAR regulyatorlarini o'rnatmalarini to'g'ri tanlab foydalanish, qurilmaning dempfer xususiyatlarini sezilarli

darajada yaxshilaydi va ob'ektning inertsiyasini kamaytiradi va rejim turg'nligi saqlab qolinadi.



8-rasm. Regulyatorlar o'rnatmalari rostlanmagan holat uchun.



9-rasm. Regulyatorlar o'rnatmalari tanlab rostlangan holat uchun.

**Xulosa va takliflar (Conclusion):** Hozirgi vaqtida elektr energiyani generatsiya taqsimoti qo'yidagi sohalarda qo'llanilishi tavsiya etilmoqda:

- birinchidan, mahalliy elektr ta'minoti muammolarini hal qilish uchun qishloq xo'jaligi kabi chekka xududlarga elektr energiyasini yetkazib beradi.
- ikkinchidan, tarmoq uzilganda yuqori ishonchlilik talablariga ega bo'lgan yuklamalar uchun zaxira quvvat manbasi hisoblanadi.
- uchinchidan, u maksimal yuklamani kamaytirishga yordam beradi ya'ni maksimal yuklama davrida ta'minot beradi va maksimal yuklama bir tekis ta'minlanishiga yordam beradi.
- turtinchidan, turli xil yuklamalarni elektr energiya iste'molini qoplash va umumiy foydalanish samaradorligini oshirishda.
- beshinchidan, u kuchlanishni saqlab turadi, quvvat yo'qolishini kamaytiradi va quvvat koeffitsientini oshiradi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar (MLA stilda)

- Зиновьев Е. В., Мумладзе Д. Г., Бубенчиков А. А., Бубенчикова Т. В. Возможность применения альтернативных источников энергии в Омском регионе // Международный научно-исследовательский журнал. 2018. № 1 (67). С. 70–73. DOI: 10.23670/IRJ.2018.67.104.
2. Pehnt M., Cames M., Fisher C. [et al.]. Micro Cogeneration: Towards Decentralized Energy Systems. Heidelberg: SpringerVerlag, 2006. 346 p. ISBN 978-3-540-25582-6.
- Slingerland S. Energy conservation and electricity sector liberalization in the Netherlands and UK: case studies on the development of cogeneration of heat and power, wind energy and demand-side management as energy conversation options // International Journal of Global Energy Issues. 2003. Vol. 19, № 1. С. 95–114. DOI: 10.1504/IJGEI.2003.002384.
- Асиев А. Т. Автономные системы электроснабжения в отдаленных районах: обоснование целесообразности использования и методы оценки показателей качества электроэнергии на основе имитационного моделирования // Прикаспийский журнал: управление и высокие технологии. 2017. № 3 (39). С. 80–94.
- Бастрон А. В., Коровайкин Н. В., Костюченко Л. П. Моделирование автономной системы электроснабжения многоквартирного сельского дома от микроГЭС // Ползуновский вестник. 2012. № 4. С. 78–82.
- Tan R. H., Ramachandaramurthy V. K. A comprehensive modeling and simulation of power quality disturbances using MATLAB/Simulink // Power quality issues in distributed generation. InTech, Rijeka. 2015. Р. 83–107. DOI: 10.5772/61209.
- Rugthaicharoencheep N., Auchariyamet S. Technical and economic impacts of distributed generation on distribution system // International Journal of Electrical, Computer, Energetic, Electronic and Communication Engineering. – 2012. – Vol. 6, N 4. – P. 385–389.
17. Игнатьев И.В., Булатов Ю.Н. Модели и методы настройки систем регулирования возбуждения генераторов на основе экспериментальных данных. – Братск: Изд-во БрГУ, 2016. – 278 с.
7. Mahmoud M.S., AL-Sunni F.M. Control and optimization of distributed generation systems. – Cham: Springer, 2015. – 578 p.